XALQ DEPUTATLARI PAXTACHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 3-aprel VII-9-31-7-102-K/25 Paxtachi tumani

Paxtachi tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuni 27-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 29-noyabrdagi 184-7-102-F/24-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasi tomonidan Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shahar, shaharcha va qishloqlarining umumiy peremetri **703780** metr umumiy maydoni **137832** gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Qarnob qishlog‘ining umumiy perimetri 214197 metr, umumiy maydoni 89791 gektar;

Yuqori Po‘latchi qishlog‘ining umumiy perimetri 59836 metr, umumiy maydoni 5141 gektar;

Xumor qishlog‘ining umumiy perimetri 61865 metr, umumiy maydoni 4616 gektar;

Quyiboq qishlog‘ining umumiy perimetri 86730 metr, umumiy maydoni 14873 gektar;

Mesit qishlog‘ining umumiy perimetri 74232 metr, umumiy maydoni 6772 gektar;

Xayrobod qishlog‘ining umumiy perimetri 49962 metr, umumiy maydoni 5229 gektar;

Sultonobod qishlog‘ining umumiy perimetri 61095 metr, umumiy maydoni 4742 gektar;

Do‘stobod qishlog‘ining umumiy perimetri 46887 metr, umumiy maydoni 5272 gektar;

Ziyodin shaharchasining umumiy perimetri17042 metr, umumiy maydoni 843 gektar;

Urg‘ich shaharchasining umumiy perimetri 8411 metr, umumiy maydoni 86 gektar;

Xumor shaharchasining umumiy perimetri 5307 metr, umumiy maydoni 93 gektar;

Suluvqo‘rg‘on shaharchasining umumiy perimetri 4755 metr, umumiy maydoni 99 gektar;

Sanchiqul shaharchasining umumiy perimetri 3398 metr, umumiy maydoni 64 gektar;

Qodirist shaharchasining umumiy perimetri 5775 metr, umumiy maydoni 122 gektar;

Past Burqut shaharchasining umumiy perimetri 4288 metr, umumiy maydoni 89 gektar;

Paxtachi tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shahar, shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi.

Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi.

Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan, Davlat Kadastrlar palatasining Paxtachi tumani filiali rahbari A.Bayitovning hisobotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Davlat Kadastrlar palatasining Paxtachi tumani filiali rahbari A.Bayitovning Paxtachi tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi hisoboti hamda Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo‘linmasi tomonidan Paxtachi tumanidagi shahar, shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2025-yil 11-martdagi 02-02/285-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Paxtachi tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga muvofiq, ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Husanov) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari hamda xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmalariga yuklansin.

Sessiya raisi



MAGRIPOVA RUZIGUL TOSHNIYOZOVNA

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2025-yil 3-apreldagi
VII-9-31-7-102-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Paxtachi tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy peremetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Qarnob qishlog‘i	214197	89791
2	Yuqori Po‘latchi qishlog‘i	59836	5141
3	Xumor qishlog‘i	61865	4616
4	Quyiboq qishlog‘i	86730	14873
5	Mesit qishlog‘i	74232	6772
6	Xayrobod qishlog‘i	49962	5229
7	Sultonobod qishlog‘i	61095	4742
8	Do‘stobod qishlog‘i	46887	5272
9	Ziyodin shaharchasi	17042	843
10	Urg‘ich shaharchasi	8411	86
11	Xumor shaharchasi	5307	93
12	Suluvqo‘rg‘on shaharchasi	4755	99
13	Sanchiqul shaharchasi	3398	64
14	Qodirist shaharchasi	5775	122
15	Past Burqut shaharchasi	4288	89
	Jami	**703780**	**137832**

Xalq deputatlari Paxtachi tumani
Kengashining
2025-yil 3-apreldagi
VII-9-31-7-102-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Paxtachi tumanidagi hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi

